

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov

Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv 92

B.M.Dehqonov

Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash 97

X.Sh.Djo'rabyevo

An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni 101

ILMIY AXBOROT**M.K.Usmonaliyeva**

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi 105

O.N.Fozilova

Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarda qahramon talqini 108

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli 113

N.B.Yuldasheva

Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari 121

G.O.Abdujalilova

Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi 124

X.Z.Umarova

Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» 127

D.Hakimova

Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish 130

G.M.Alamov

Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati 135

A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish 139

S.R.Xoliqov

Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'nавиати va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari 143

M.A.Aliева

Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мережковского 147

A.Y.Ergashev

Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijtimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari 152

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni 155

X.J.Isomiddinov

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari 158

R.D.Mustayev

Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati 161

B.I.Muxtoraliyev

Ilk hikoyalardagi ijodiy o'ziga xoslik 165

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari 171

M.M.Azizov

Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking 174

A.U.Xamidjanov

Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi 181

G.T.Dadamirzayeva

Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri 191

EKSPOZITSIYA VA UNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI

EXPOSITION AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION

ЭКСПОЗИЦИЯ И ЕЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ

Abdujalilova Gulmiraxon Odiljon qizi¹

¹Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotiga o'zining yorqin ijodi bilan hissa qo'shib kelayotgan Bahodir Qobul asarlari va ularning ekspozitsiyasi haqida to'xtalib o'tilgan. Ekspozitsiyaning badiy-estetik funksiyasi va asarda tutgan o'rni haqida o'r ganilgan.

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется Бахадиру Кабулу, внесшего своим блестящим творчеством вклад в современную узбекскую литературу, и их изложению. Изучена художественно-эстетическая функция экспозиции и ее место в произведении.

Abstract

This article focuses on the works of Bahadir Kabul, who has been contributing to modern Uzbek literature with his brilliant work, and their exposition. The artistic-aesthetic function of exposition and its place in the work were studied.

Kalit so'zlar: ekspozitsiya, qissa, syujet, unsur, tarjimayi hol.

Key words: exposition, story, plot, element, biography.

Ключевые слова: экспозиция, рассказ, сюжет, элемент, биография

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiyat, xususan, syujet va uning tarkibiy qismlarining badiy-estetik funksiyasini tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Zero, yangicha badiiy tafakkur shakllari bugungi o'zbek nasrida an'ana va yangilanish, obraz va obrazlilik masalasida faol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, syujet kompozitsiyasi, uning tarkibiy qismlari, jumladan, ekspozitsiyaning asar kompozitsiyasidagi o'rni, syujet rivojidagi ahamiyati muhim vazifalardan sanaladi. Boshqa tomonidan olganda, Bahodir Qobul nasrida syujet masalasi va uning elementlaridan biri bo'lgan ekspozitsiyani tadqiq etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Zotan, ekspozitsiya poetikaning asosiy unsuri sifatida yozuvchi badiiy mahoratini namyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Ma'lumki, syujet va uning tarkibiy qismi haqidagi tadqiqotlar Aristotel, Yuliy Skaliger, Gegel kabi mutafakkirlar ishlarida keng tadqiq etilgan. Lekin XX asrga kelib, syujet va uning tarkibi haqida Leonid Timofeev, Gennadiy Pospelov, Izzat Sulton kabi olimlar ishlarida nisbatan kengroq tadqiq etilgan. Aslida syujet ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim singari asosiy unsurlardan tashkil topadi. Mazkur atamalardan asar qahramonlari haqida, voqealar kechadigan makon haqida ma'lumot beruvchi, o'quvchiga tanishtiruvchi qismi ekspozitsiya sanaladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov ekspozitsiyaga quyidagicha ta'rif bergan: "Ekspozitsiya sujetning boshlanish qismi bo'lib, o'quvchini asar voqealarini kechadigan joy, qahramonlar, asar konflikti yetilgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi." [2:111]. Haqiqatan ham, badiiy asar haqida, voqealar kechadigan joy, qahramonlar haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun asarda ekspozitsiya bo'lishi kerak.

Adabiyotshunos Q.Yo'Ichiyevning fikricha, ekspozitsiya ba'zan portret yoki peyzaj bilan ham boshlanadi. "Aynan syujet voqealariga aloqador detal, obrazlarni bir makonga to'plashi, asar mazmunitagi asosiy g'oya, ... kechinma va muammolarni yorqinroqligini ta'minlaydi. [5:106] Natijada ekspozitsiya voqealarning jonli va badiiy mukammalligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ya'ni, inson uchun tarjimayi hol naqadar zarur bo'lsa, badiiy asar uchun ham ekspozitsiya shu qadar zarur. Bu o'quvchiga asarni oson anglashga, qahramonlarni ko'z o'ngida gavdalantirishga yordam beradi. Bu ekspozitsiyaning badiy-estetik funksiyalaridan biri hisoblanadi. Lekin ekspozitsiyaning asarda keltirilishi ham hajmi ham ixtiyoriy hisoblanadi. Ya'ni yozuvchi asarda ekspozitsiyani umuman keltirmasligi, hajmini esa yirik yoki qisqa tarzda berishi mumkin. Masalan, Bahodir Qobulning "Enashamol" qissasida ekspozitsiya o'rni asar boshida keltirilmagan. Bunda yozuvchi kechiktirilgan

ILMIY AXBOROT

ekspozitsiyadan foydalangan. Muallif Said Ahmadning "Jimjitlik" romanida esa asarning prologidan so'ng, ya'ni Tolibning qishloqqa, ota hovlisiga kelishi-yu, kampir bilan bo'lgan suhbatigacha bo'lgan qismda keltirilgan. Shuningdek, asar mobaynida yana ko'plab o'rirlarda ekspozitsiyalar tarqoq holda keltirilgan. Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov ham bu haqda o'zining asosli fikrlarini keltirib o'tgan. "Ekspozitsiya kompozitsion unsurlardan biri sifatida yozuvchi maqsadiga ko'ra badiiy asarning turli o'rirlarida, har xil ko'rinishda keladi va turli nomlar bilan ataladi. Voqealar boshlanishidan oldin berilsa, to'g'ri ekspozitsiya (A.Qodiriya va Oybeka romanlarida), syujet tugunidan so'ng berilsa, kechiktirilgan ekspozitsiya (A.Qahhorning "Sinchalak" qissasi, "Qo'shchinor chiroqlari" romani), asar oxirida berilgan ma'lumotlar esa teskari ekspozitsiya deb ataladi. Ayrim yirik hajmli asarlarda qahramonlar va voqelik o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar butun asarga sochib yuboriladi. Bular sochma ekspozitsiya deyiladi (L.Tolstoyning "Urush va tinchlik", O.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari). Hozirgi o'zbek nasrida ekspozitsiyaning sochma turi ko'proq uchramoqda. Asar janriga qarab ekspozitsiya ham turlicha bo'lishi mumkin" [4:46]

"Garchi ekspozitsiya badiiy asarda bosh konfliktni rivojlantirib, keyingi voqealarga turki berishga jiddiy ko'maklashmasada, ko'pincha, asosiy voqealiga rivojining yo'naliishi hamda xarakterini oldindan aniqlashga xizmat qiladi." [4:46]

Bahodir Qobulning "Otahayot" qissasida ham ekspozitsiya voqealiga rivojining yo'naliishi va xarakterini oldindan aniqlashga xizmat qilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bahodir Qobul "Otahayot" qissasidagi ekspozitsiyasi ham aynan yuqoridagi nazariy asoslar doirasida tashkil etilgan. Voqealar kechadigan makon, joy tasvirlari o'ziga xos uslubda, kuchli badiiylik bilan yaratiladi. "Qishloqqa kirib borarkan yo'l yoqasidagi tanish daraxtlardan birortayam qolmaganligiga ko'zi yetgach dami ichiga tushib ketdi... Bir vaqtlar shoxlari shamolda gurillagan, epikinda sollanishgan, shoxlashishgan shoxlarning soyalari bir birini quvatlagan, shoxdan-shoxga uchgan-qo'ngan qushlar g'ujuridan, ostida bir maydon o'tirgan odamning bahri dili yayraydigan, g'ubori ketadigan yo'l yoqalagan daraxtzordan irimigayam qolmaganidan aqli shoshdi. Jarko'chaning ikki yelkasida osmonni suyab turgandek balandan baland teraklarning hayratidan hayjonlangancha "qal'a devorlariga o'xsharkan" degan teraklar ham xolasinikiga ketgan ko'rindi." [3:89]

Ushbu parchada ham qissa qahramonining shahardan qishloqqa qaytib kelgandagi qishloqning ayanchli holati, bir paytlar qishloqning qanday go'zal va fusunkor ekanligi keltirilgan. Yozuvchi ekspozitsiyani bunday keltirish orqali bugungi kundagi tabiatga bo'layotgan nohaqliklar, insonlar tomonidan yetkizilayotgan zararlar ko'rsatib berilgan. Bunda yozuvchi ekspozitsiya tarkibiga peyzaj va uning obraz ruhiyatiga ta'siri orqali syujetning keyingi bosqichlaridagi keskinlik, dramatizmga ham ishora qiladi. Bu esa ekspozitsiyining badiiy –estetik vazifasida konflikt, peyzaj va obraz munosabati ham borligini ko'rsatadi.

– Keling, endi bir bag'rimga bosay, avojon. Bo'yinggizga bir to'yaylik. Yana qachon ko'rishamiz. Kelsammi kelmasammi deb turgan shamolni isi kimniki desak, sizniki ekanda... Bu Bozorboy avoning ovozi. Ota kasb, etikdo'zlik qiladi. Birda aytgan edi: quloq terlab etik tikish, burin pishnab maxsi tortish qayoqda. U kunlar o'tib ketgan, avojon. Kun yirtiq, yamoqqa qolgan. Qishloqda o'qimagan kitobim qolmadidi. Sizda zo'rlaridan bor, avojon, bilaman. Bittasini tashlab ketasiz. Yangamning yirtishidan tekkan tavarikka o'rabi o'qiyman. Bu keganingizgacha yodlab qo'yaman..." [3:90]

Ushbu parcha ham ekspozitsiyadan olingen bo'lib, yozuvchi dialogik nutq orqali Bozorboy avo haqida o'quvchiga uni tanishtiradi, shuning bilan bir qatorda eski davr turmushi bilan bugungi kunning farqi, u davr insonlarining bugungi kun insonlaridan turlichaligi, yashash tarzining o'zgarganligi birligina etikdo'zlik kasbining qadrsizlanishi orqali tasvirlab bergen.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ekspozitsiya syujetning asosiy va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Asar to'laqonli va pishiq bo'lishi, o'quvchi oson tushunishi uchun doimo ekspozitsiya keltirilishi kerak. Asarda birligina ekspozitsiyaning o'zi ham ko'plab ma'no tashish vazifasini bajarishi mumkin. Bu yozuvchining uslubiga, ekspozitsiya yaratish mahoratiga bog'liq.

Bahodir Qobul asarlarida ekspozitsiyaning kuchli badiiylik va o'ziga xos mahorat bilan yaratiganligining guvohi bo'lamic. Yozuvchi bu yo'l badiiy asarga, voqealar jarayoni kechadigan makon va qahramonlarga o'quvchining diqqatini qaratganligini kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
- 2.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.– Toshkent:Akademnashr, 2018– 400 b.
- 3.Qobul B. "Enayo'l". – Tashkent: Mashhur-Press, 2018.
- 4.Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T.: 2009.
- 5.Йўлчиев К. [Лирик шеърда сюжет ва топохронос](#). Scientific journal of the Fergana State University, 2021. №1. 102-107.